

SHAVKAT RAHMON IJODI USMON AZIM TALQINIDA

Ravshanova To'lg'anoy Sodiq qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri – Shavkat Rahmonning lirik mahorati tahlil qilinadi. Adibning o'ziga xos poetik olami, ramz va badiiy vositalardan foydalanish uslubi, she'rlardagi falsafiylik, erkin fikrlash va modernistik qarashlar yoritib beriladi. Uning she'riy nutqidagi ma'no qatlamlari, obrazlar tizimi va estetik qarashari asosida zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: lirik mahorat, badiiy tasvir, ramz, falsafiy obraz, she'riy uslub, erkin fikr, ma'naviyat, Shavkat Rahmon.

"Adabiyotda shoirlarning yo'li turfa", – deydi yozuvchi Usmon Azim o'zining "So'ngso'zlar" asarida. [45;140] Shavkat Rahmon oddiy shoirdan buyuk shoir darajasini ko'z oldimizda bosib o'tdi deydi. U o'z ijodiy imkoniyatlarini borgan sari o'stirdi va o'zbek she'riyatining yuksak cho'qqilarni zabt etganini aytib o'tadi. Usmon Azim "So'ngso'zlar" asarida Shavkat Rahmon haqida yozar ekan, uning shoirlik salohiyatini chuqur anglaganini ko'rish mumkin. U shunchaki she'r yozadigan emas, balki she'rda yashaydigan, she'r orqali o'zining ichki olamiga, jamiyatga, insoniyat dardiga murojaat qiladigan shoir edi. "U oddiy shoirlikdan buyuk shoir darajasiga yetdi", deya ta'kidlashi ham bejiz emas. Chunki Shavkat Rahmon ijodi o'zbek she'riyatiga yangi bir ruh, yangi bir ohang olib kirgan, so'zga bo'lgan yondashuvda o'zgacha teranlik, badiiy qatlamlar yaratgan. "So'ngso'zlar" da Usmon Azim uning she'rlarini "nihoyatda pishiq va tomiri o'tkir" deb baholaydi. Bu – shoirning har bir misrasi ortida chuqur fikr, yurak sadosi, ba'zan esa dard va iztirob borligini bildiradi. "Ko'zga lov etib ko'rinavermas edi alangali she'riyati bor edi" degan ta'rifi esa Shavkat Rahmon she'riyatining ichki kuchi, ichki alangasini anglatadi. Bu alanga faqat satrda emas, so'z ostida, satr orqasida yashiringan ma'nolarda, yurakdan yurakka o'tadigan sezgi va tuyg'ulardadir. Usmon Azimning bu fikrlari orqali biz Shavkat Rahmon she'riyatini yana bir bor chuqurroq his qilamiz. U she'rni faqat ifoda emas, yashash tarziga aylantirgan, so'z orqali butun bir olam yaratgan ijodkor edi. "So'ngso'zlar" da bitilgan bu haqiqatlar shoir hayotining, ruhining va ijodining mohiyatini ochib beradi.

Usmon Azim "So'ngso'zlar" da asarida Shavkat Rahmon ijodiga yuksak baho berar ekan, uning shoirlik yo'lini nafaqat yuksak san'at namunasi sifatida, balki har bir yosh iste'dod uchun ibrat maktabi sifatida ko'rsatadi. U shunday deydi: "Har bir yosh iste'dodga Shavkat Rahmonning izlanish uslubini tavsiya etgan bo'lardim". [45;145] Bu fikr zamirida chuqur haqiqat yotadi. Chunki Shavkat Rahmon

she'riyatga shunchaki kirib kelmagan u har bir satrni izlab topgan, har bir so'zni terib-terib, qalban his etib yozgan. Uning ijodi izlanish, iztirob, mehnat, fidoyilik va sadoqat mahsuli. Shavkat Rahmon uchun she'r yozish oddiy ijodiy mashg'ulot emas, balki ruhiy izlanish, borliqni va inson qalbini anglash jarayoni edi. Usmon Azim uni bejizga "buyuk shoir darajasiga yetgan" deb atamaydi, bu daraja unga osmondan tushmagan, balki izchil mehnat, ichki kurashlar va tinimsiz izlanish orqali erishilgan cho'qqi edi. U har bir she'rida o'zini takroran topdi, har bir misrasida o'zini yana qaytadan yaratdi. Usmon Azimning ta'kidlashicha, Shavkat Rahmonning ijodi bu – tinimsiz izlanish va mehnatning samarasidir. Bu jumla yosh ijodkorlar uchun nihoyatda muhim saboqdir. Chunki bugungi adabiyotda ham iste'dodli yoshlar ko'p, biroq ularning ichidan o'z ovozi topgan, ijodda chuqur ildiz otgan, o'z uslubini izlab topganlari kam. Shavkat Rahmon esa she'riyatda o'z yo'lini topgan, shu yo'l bilan yurib o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirlardan biridir.

Usmon Azimning bu so'zlari yosh adiblar uchun nafaqat maqto'v, balki da'vat, o'z ustida ishlashga, izlanishga chorlovdir. Chunki iste'dodning o'zi yetarli emas, unga mehnat, izlanish, ruhiy pishish va san'atga sadoqat hamroh bo'lmasa, u yuksak san'at darajasiga ko'tarila olmaydi. Shavkat Rahmon esa aynan ana shu fazilatlar uyg'unligining yorqin namunasi bo'ldi. Shavkat Rahmon irodasi nihoyatda kuchli, maqsad sari qat'iyat bilan intiladigan ijodkor edi. U oddiy shoir emas, o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'ygan, she'riyatni hayotining mazmuniga aylantirgan buyuk san'atkor edi. U o'z maqsadiga yetmaguncha to'xtamas, tinimsiz mehnat qilardi. Yozuvchi Usmon Azim eslaganiday, Shavkat bir o'tirishda bir kitoblik she'rlar yozishga qodir edi. Bu oddiy iste'dod emas, bu mehnat va fidoyilik, ilhom va irodaning uyg'unligi edi. Ta'til aksariyat odamlar uchun hordiq, dam olish fasli bo'lsa, Shavkat uchun bu "she'r fasli" edi. Ishlarni yig'ishtirib, stolga o'tirar, butun ta'til davomida qalbidan toshib chiqqan ilhomni qog'ozga to'kardi. Go'yoki u o'sha kunlarda boshqa bir olamda yashardi bu olamda so'zlar tirik edi, har bir harf yurakdan chiqardi. U uchun yozmaslik – nafas olmaslik bilan barobar edi. Shavkat Rahmonning ijodiy yo'li faqat go'zallikni kuylashdan iborat emasdi. U doimo ozodlikni, erkinlikni, hurriyatni sog'inib yashadi. Uning yuragi hurlikni, inson erkinligini kuylardi. Har bir she'rida bu sog'inchni, bu iztirobni his qilish mumkin: u o'rtanib yozardi, yuragi og'rib yozardi. Har bir misrasi ich-ichidan yonib chiqqandek edi. Ammo Mustaqillik kelganda, shoir bu ozodlikni tanimadi. Haqiqiy ozodlik uning orzularidagidek emas edi. Tashqi shiorlar, bayramlar bor edi, ammo jamiyatning ichki holati, ruhiy holati o'zgarmagan edi. "Ozodlik o'ylaganimdek bo'lmadi", – derdi Shavkat. Shu haqiqat unga og'ir botdi. Uning orzu qilgan erk dunyosi kelmagan, mustaqillik orzulari ko'ngil uzra qushdek uchib ketgandek

bo'ldi. Va nihoyat, u yoza olmay qoldi. Yoki yozgisi kelmadi. Uning qalamidan oqayotgan so'zlar, endi uning yuragidagi og'riqni yengillashtira olmay qo'ydi. "Yozgan bilan dunyo o'zgarmayaptiku", – derdi shoir. Bu iztirobli so'z ichki sinish, ijodkor ruhining ezilishi edi. U faqat satrlar emas, orzularini ham yo'qotayotganini his qildi. Balki yozishga bo'lgan ishtiyoqini, ixlosini ham yo'qotgandir. Chunki u she'r orqali dunyoni o'zgartirishga ishongan edi.

Shavkat Rahmon uchun yozmaslik ichki bo'shliq bilan yuzma-yuz kelish demak edi. Biroq u yozganda ham, endi avvalgiday yuragini to'kib-sololmadi. Satrlari orqasida shubha, umidsizlik va og'riq aralashib yotar edi. U har doim so'z orqali haqiqatni aytishga harakat qilgan, biroq hayot bu haqiqatlarga quloq tutmasdi. Shu bois, u asta-sekin sukutni tanladi shovqindan emas, ko'ngildagi sado yo'qligidan. Ko'pchilik uchun shoir orzular, ilhom va go'zallik targ'ibotchisi. Ammo Shavkatning obrazida biz boshqacha shoirni ko'ramiz: u jamiyat dardini yuragida ko'tarib yurgan, insoniy zaifliklarga qarshi kurashgan, yolg'izlikni, iztirobni his qilgan va aynan shu tuyg'ularni har bir satriga singdirgan ijodkor edi. Uning yozmaganlari yozganlaridan ko'proq narsa aytib turardi. Ko'ngli to'lgan kunlarda yozgan she'rlari endi yuragiga sig'may qolgan mung bo'lib, jimjitlikka aylana boshladi. Shavkat Rahmonning sukuti – bu ichki qarshilik, so'zning samarasizligidan dilxiralik, go'zallikni qutqarib bo'lmasligini anglash edi "Ro'zi Choriyev, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi. Ular negadir o'lmaganday. O'zlari ham ajib bir mardonalikda – o'ng-u chapga qaramasdan – o'lmaydiganday umr kechiradilar", – deydi Usmon Azim. [45; 259]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmon Azim "So'ngso'zlar". 2020.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar.5-jild, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti, T., 1989, B-228.
3. A.Qahhor. Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga.- Adabiyotimiz avtobiografiyasi. T. B-196.
4. . Erkin Vohidov. Shoir She'r-u shuur. "Yosh gvardiya" nashryoti. T., 1987-yil.B- 156.
5. Fozilov N. Ustozlar davrasida. – T.: Yosh gvardiya, 1988.
6. Hamidulla Boltaboyev. So'z sehri. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. Toshkent. B-145.